



Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish

Egamberdiyev Oyatillox Alisher o'g'li –
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktorati
E-mail: eoyatillox@gmail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9557-9386>

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni baholash va monitoring qilish tizimini tizimli o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida xalqaro ta'lim standartlari va me'yorlari asosida pedagogik kompetentlikning tarkibiy elementlari aniqlanib, ularning baholash mezonlari va indikatorlari ishlab chiqildi. Maqolada kompetentlikni shakllantirish jarayoni va uning monitoring mexanizmlari batafsil tahlil qilinib, jumladan diagnostika vositalari, test va nazorat metodlari hamda rivojlanish darajasini aniqlash mezonlari keltirilgan. Shuningdek, maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda monitoring va baholash tizimining amaliy ahamiyati ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari nafaqat nazariy pedagogik yondashuvlarni rivojlantirish, balki amaliy faoliyatda o'quv dasturlarini loyihalash, baholash vositalarini ishlab chiqish va o'quv jarayonida monitoringni samarali tashkil etishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagoglar, kasbiy kompetentlik, xalqaro standartlar, baholash tizimi, monitoring, ta'lim sifati.

Оценка и мониторинг профессиональной компетентности будущих педагогов на основе международных стандартов

***Аннотация.** Данная статья посвящена системному изучению системы оценки и мониторинга профессиональной компетентности будущих педагогов. В рамках исследования были определены структурные элементы педагогической компетентности на основе международных образовательных стандартов и норм, а также разработаны критерии и показатели их оценки. В статье подробно анализируются процессы формирования компетентности и механизмы её мониторинга, включая диагностические инструменты, тесты и контрольные методы, а также критерии определения уровня развития. Кроме того, показана практическая значимость системы мониторинга и оценки для повышения профессиональной подготовки будущих педагогов в учреждениях высшего образования. Результаты исследования могут быть использованы не только для развития теоретических педагогических подходов, но и в практической деятельности – при проектировании учебных программ, разработке оценочных инструментов и эффективной организации мониторинга учебного процесса.*

***Ключевые слова:** будущие педагоги, профессиональная компетентность, международные стандарты, система оценки, мониторинг, качество образования.*

Assessment and monitoring of the professional competence of future teachers based on international standards

***Annotation.** This article is devoted to a systematic study of the system for assessing and monitoring the professional competence of future teachers. Within the research, the structural elements of pedagogical competence were identified based on international educational standards and norms, and criteria and indicators for their assessment were developed. The article provides a detailed analysis of the processes of competence formation and monitoring mechanisms, including diagnostic tools, tests, and control methods, as well as criteria for determining the level of development. In addition, the practical significance of the assessment and monitoring system for improving the professional training of future teachers in higher education institutions is highlighted. The findings of the study can be applied not only to the development of theoretical pedagogical approaches but also in practice – in designing curricula, developing assessment tools, and effectively organizing the monitoring of the educational process.*

***Keywords:** future teachers, professional competence, international standards, assessment system, monitoring, quality of education.*

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik – bu pedagogning o'z sohasidagi bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini amaliy faoliyatda samarali qo'llash qobiliyatidir. Zamonaviy ta'lim jarayonida pedagogik kompetentlik nafaqat akademik bilimlarga, balki pedagogik va didaktik yondashuvlarga, shuningdek, ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarga ham bog'liq bo'lib, uni baholash va monitoring qilish tizimi oliy ta'lim sifatini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Xalqaro ta'lim muhitining kengayishi va oliy ta'limning xalqarolashtirilishi pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash uchun xalqaro me'yor va standartlar ishlab chiqilgan, ular o'quv jarayonini sifatli tashkil etish, ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish hamda pedagoglarning kasbiy malakasini oshirishda asosiy yo'nalish sifatida qabul qilinmoqda. Shu bilan birga, monitoring mexanizmlari orqali pedagogik jarayonning samaradorligi doimiy ravishda tahlil qilinadi, zaif tomonlari aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini baholash tizimi quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: pedagogik kompetentlikni shakllantirish jarayonini tizimli kuzatish, o'quv jarayonida olingan natijalarni aniqlash, pedagoglarning malaka darajasini baholash va zarur bo'lganda metodik yordam ko'rsatish. Shu bilan birga, xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda samaradorlikni oshirish, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini global talablar darajasiga olib chiqish imkonini yaratadi. Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash va monitoring qilish tizimining samarali tashkil etilishi nafaqat pedagoglarning individual rivojlanishi, balki butun ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda ularning kasbiy tayyorgarligini xalqaro talablar darajasiga olib chiqish masalalari pedagogika fanida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash va monitoring qilish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarda asosiy o'rin egallaydi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari

Pedagoglarning kasbiy kompetentligi masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu tushuncha ko'p qirrali va integrativ kategoriya sifatida talqin qilinadi. Xorijiy olimlar kompetentlikni nafaqat bilim va ko'nikmalar majmui, balki shaxsning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlik darajasi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, refleksiv va innovatsion tafakkur bilan bog'liq sifatlar yig'indisi sifatida izohlaydilar.

Respublikamizda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish va baholash masalalari bir qator yetuk olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, N.X.Jo'rayev o'z tadqiqotlarida pedagog kadrlar tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni asosiy metodologik tamoyil sifatida ko'rsatib, kasbiy kompetentlikni pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy sifatleri integratsiyasi sifatida talqin etadi. Olim pedagog tayyorlash tizimida baholash mezonlarining aniq belgilanishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. R.Jo'rayev ta'lim sifatini boshqarish masalalariga bag'ishlangan ishlarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini monitoring qilishni ta'lim

tizimini modernizatsiya qilishning muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, monitoring jarayonlari diagnostik, tahliliy va prognozlovchi funksiyalarni bajarishi lozim.

B.X.Xodjayev bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalarini o'rganib, kompetentlikka asoslangan baholash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi. Olim o'z tadqiqotlarida baholash jarayonining uzluksizligi va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi muhimligini qayd etadi. Sh.S. Sharipov pedagogik diagnostika va monitoring masalalarini ilmiy jihatdan asoslab, kasbiy kompetentlikni baholashda mezonlar va ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Uning ishlarida pedagogik monitoring ta'lim sifatini boshqarishning samarali vositasi sifatida talqin etiladi. Shuningdek, A.A.Abduqodirov, U.I.Inoyatov, M.M.To'xtaxodjayev kabi olimlar pedagog kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish va baholash masalalariga oid ilmiy qarashlarni ilgari surganlar.

Xorijiyda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash masalasi tizimli va kompleks yondashuv asosida o'rganilgan. Xususan, amerikalik olim Lee S.Shulman pedagog kompetentligining nazariy asoslarini ishlab chiqib, "pedagogik mazmuniy bilim" (Pedagogical Content Knowledge – PCK) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Ushbu konsepsiya pedagog kasbiy kompetentligini baholashda fan bilimlari va ularni o'qitish metodikasining integratsiyasini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Donald Schon o'zining reflektiv amaliyot nazariyasida pedagogning kasbiy kompetentligini baholashda refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish mexanizmlarining ahamiyatini asoslab bergan. Uning yondashuvi xalqaro baholash modellarida keng qo'llaniladi.

Respublika va xorijiy olimlar tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, mahalliy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari yetarli darajada yoritilgan bo'lsa-da, baholash va monitoring jarayonlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish masalasi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Xorijiy tadqiqotlarda esa kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi aniq mezonlar, indikatorlar va monitoring mexanizmlari orqali tizimlashtirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish muammosini o'rganishga mazkur tadqiqot yo'naltirilgan bo'lib, uning metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanida e'tirof etilgan kompetensiyaviy, tizimli va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar uyg'unligiga asoslanadi. Pedagog shaxsini kasbiy faoliyat subyekti sifatida rivojlantirishni, uning bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarini integratsiyalashtirish holda baholashni nazarda tutadi.

UNESCO, OECD va Yevropa ta'lim maktabida ilgari surilgan kompetensiyaga asoslangan ta'lim konsepsiyalari, shuningdek, respublika olimlarining pedagog kadrlar tayyorlash sifatini baholashga oid ilmiy qarashlari tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligini faqat bilim darajasi bilan emas, balki real pedagogik vaziyatlarda faoliyat yurita olish qobiliyati orqali aniqlash imkonini beradi. Tizimli yondashuv esa kasbiy kompetentlikni shakllantirish, baholash va monitoring qilish jarayonlarini o'zaro uzviy bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqishga xizmat qiladi. Mazkur maqsadga erishish jarayonida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar yordamida pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi hamda xalqaro baholash yondashuvlari tizimlashtirildi. Empirik metodlar orqali bo'lajak pedagoglarning mavjud kompetentlik darajasi aniqlanib, kuzatish, suhbat, anketa va diagnostik testlar asosida dastlabki natijalar olindi. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali ishlab chiqilgan mezon va indikatorlarning amaliy ahamiyati baholandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari asosida tadqiqot amalga oshirildi va u aniqlovchi, shakllantiruvchi hamda nazorat bosqichlarini qamrab oldi. Aniqlovchi bosqichda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligining boshlang'ich holati tahlil qilindi. Shakllantiruvchi bosqichda xalqaro standartlarga mos baholash mezonlari va monitoring mexanizmlari ta'lim jarayoniga joriy etildi. Nazorat bosqichida esa olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, ishlab chiqilgan metodologiya samaradorligi aniqlandi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash jarayoni motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyat va refleksiv mezonlar asosida tashkil etildi. Har bir mezon bo'yicha kompetentlik darajalari bosqichma-bosqich monitoring qilinib, natijalar ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun tahliliy ma'lumot sifatida foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchliligi statistik tahlil, qiyosiy solishtirish hamda tajriba va nazorat guruhlar natijalarini taqqoslash orqali ta'minlandi.

Tadqiqot metodologiyasining umumlashtiruvchi jadvali

№	Metodologik komponentlar	Mazmuni
1.	Metodologik yondashuvlar	Kompetensiyaviy, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan
2.	Nazariy asoslar	UNESCO, OECD, Yevropa kompetensiya modeli, respublika pedagogika ilmiy maktabi
3.	Tadqiqot obyekti	Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoni
4.	Tadqiqot predmeti	Kasbiy kompetentlikni xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish tizimi
5.	Tadqiqot metodlari	Nazariy tahlil, kuzatish, anketa, test, ekspert baholash, tajriba-sinov
6.	Baholash mezonlari	Motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyat, refleksiv
7.	Kompetentlik darajalari	Boshlang'ich, o'rta, yuqori
8.	Tadqiqot bosqichlari	Aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat
9.	Natijalarni tahlil qilish	Statistik va qiyosiy tahlil, monitoring natijalari

Jadvalda tadqiqot metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari tizimli ravishda umumlashtirilgan bo'lib, unda metodologik yondashuvlar, nazariy asoslar hamda tadqiqotning obyekti va predmeti o'zaro uzviy bog'liqlikda aks ettirilgan. Jadvalda keltirilgan baholash mezonlari va kompetentlik darajalari bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini bosqichma-bosqich monitoring qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot bosqichlari va natijalarni tahlil qilish usullarining aniqligi ishlab chiqilgan metodologiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilishga qaratilgan metodologik model ishlab chiqildi hamda pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali uning samaradorligi tekshirildi. Tajriba-sinov ishlari oliy pedagogik ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglar ishtirokida tashkil etilib, ular tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

Aniqlovchi bosqich natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqot boshlanishida tajriba va nazorat guruhlarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajalari deyarli teng bo'lib, ularning aksariyati boshlang'ich va o'rta darajada ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, refleksiv va amaliy-faoliyat komponentlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatildi.

Bu holat kasbiy tayyorgarlik jarayonida baholash va monitoring mexanizmlarining tizimli yo'lga qo'yilmaganligi bilan izohlanadi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida xalqaro standartlarga mos baholash mezonlari, kompetensiyaviy indikatorlar hamda uzluksiz monitoring mexanizmlari ta'lim jarayoniga joriy etildi. Xususan, portfel texnologiyasi, reflektiv kundaliklar, kompetensiyaga asoslangan topshiriqlar va diagnostik baholash vositalaridan foydalanildi. Natijada bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi oshib, nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati sezilarli darajada rivojlandi.

Nazorat bosqichi natijalari tajriba guruhida kasbiy kompetentlikning barcha mezonlari bo'yicha ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Xususan, kognitiv mezon bo'yicha bilimlarning tizimliliigi va mustahkamligi oshgani, amaliy-faoliyat mezon bo'yicha pedagogik vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari shakllangani, reflektiv mezon bo'yicha esa o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatining rivojlangani aniqlandi. Nazorat guruhida esa bunday o'zgarishlar sezilarli darajada past bo'lib, asosan an'anaviy ta'lim yondashuvlari doirasida cheklangan holda namoyon bo'ldi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish jarayonini tizimli tashkil etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari xorijiy olimlar, xususan, L. Shulman tomonidan asoslangan pedagogik mazmuniy bilim konsepsiyasi hamda P. Perrenoud tomonidan ilgari surilgan kompetensiyaga asoslangan baholash yondashuvlari bilan uyg'un ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, monitoring jarayonining rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi D. Schonning reflektiv amaliyot nazariyasini amaliy jihatdan tasdiqladi. Bo'lajak pedagoglarda refleksiya va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarining shakllanishi ularning kasbiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan ijobiy o'zgarishlar OECD tomonidan ilgari surilgan pedagog kompetentligini baholash indikatorlari bilan hamohangdir. Shuningdek, milliy ta'lim tizimi sharoitida xalqaro baholash mexanizmlarini moslashtirish zarurligi tasdiqlandi. Xalqaro tajribani to'liq ko'chirib olish emas, balki uni milliy ta'lim mazmuni va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarga moslashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

Natijalar tahlili va muhokamasi asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholash va monitoring qilishda xalqaro standartlarga asoslangan tizimli yondashuv yuqori samaradorlikka ega;
- kompetensiyaviy mezonlar asosida tashkil etilgan baholash pedagoglarning kasbiy rivojlanishini rag'batlantiradi;
- monitoring natijalari ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun muhim tahliliy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur natijalar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini modernizatsiya qilish, baholash tizimini takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini xalqaro standartlar asosida baholash va monitoring qilish muammosini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etishga qaratildi. Tadqiqot davomida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida kompetensiyaviy

yondashuvning ustuvorligi, baholash va monitoring jarayonlarining ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Adabiyotlar tahlili natijasida kasbiy kompetentlik tushunchasining mazmuni aniqlashtirilib, uning pedagog shaxsining bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy qadriyatlarini integratsiyalovchi murakkab pedagogik hodisa ekanligi aniqlandi. Xalqaro va milliy ilmiy manbalar tahlili bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini baholashda an'anaviy nazorat yondashuvlaridan kompetensiyaga asoslangan, rivojlantiruvchi baholash tizimlariga o'tish zarurligini ko'rsatdi. Xalqaro standartlarga mos baholash mezonlari va indikatorlar asosida tashkil etilgan monitoring bo'lajak pedagoglarda kasbiy refleksiya, mustaqil fikrlash va amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshiradi. Shuningdek, baholash jarayonining rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi pedagoglarning kasbiy o'sishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Milliy ta'lim tizimi sharoitida xalqaro baholash tajribasini moslashtirish va integratsiyalash zarurligini asoslab berib. Xalqaro yondashuvlarning bevosita ko'chirilishi emas, balki ularni milliy ta'lim mazmuni, pedagogik an'analar va ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.

Umuman olganda, mazkur natijalar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida baholash va monitoring tizimini takomillashtirish, kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim modelini joriy etish hamda pedagogik ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev N.X. Pedagog kadrlar tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari – Toshkent.: Fan, 2018. – 320 b.
2. Jo'rayev R.H. Ta'lim sifatini boshqarishning pedagogik asoslari – Toshkent.: O'qituvchi, 2019. – 256 b.
3. Xodjayev B.X. Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish – Toshkent.: Fan va texnologiya, 2020. – 198 b.
4. Sharipov Sh.S. Pedagogik diagnostika va monitoring – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. – 224 b.
5. Abduqodirov A.A. Pedagogik innovatsiyalar va ta'lim texnologiyalari – Toshkent.: Noshir, 2016. – 240 b.
6. Inoyatov U.I. Uzluksiz ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash – Toshkent.: Fan, 2015. – 280 b.
7. To'xtaxodjayev M.M. Oliy ta'lim pedagogikasi – Toshkent.: O'qituvchi, 2014. – 312 b.
8. Perrenoud P. Dix nouvelles compétences pour enseigner – Paris.: ESF Éditeur, 2004. – 215 p.
9. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System – Paris.: OECD Publishing, 2018. – 352 p.